ABU NASR FOROBIY HAYOTI VA IJODI, ASARLARI HAQIDA

X.U.Samatov
TATU Samarqand filiali
Shamsuddinov.M.Sh
TATU Samarqand Filiali Kompyuter Injiniring
Fakulteti KI23-01 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola Abu Nasr Forobiyning hayoti va ijodi uning yozgan asarlarini, biz kelajak avlodlar uchun o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.
Abstract: This article reflects on the life and work of Abu Nasr Forobi on the role and importance of his writings for future generations.
Аннотация: Эта статья посвящена жизни и творчеству Абу Насра Фараби, его творчеству, его роли и значению для будущих поколений
Kalit so'zlar: asar, qo'lyozma, risola, ilm, mutafakkir, alloma, faylasuf, tafakkur, til, mantiq, fikr, tarbiya, ilm-fan, axloq, falsafa, din, hissiyot.

Forobiy hayoti va ijodi: Mustaqillik yillarida yurtimizda yashab ilod qilgan buyuk bobokalonlarimiz xotirasini abadiylashtirish biz kelajak avlodlar uchun yozib qoldirgan meroslarini o'qib o'rganishga katta e'tibor qaratilgan edi. Forobiy uning taxallusi bo'lib, to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan. Forobiy turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg'og'idagi Forob – O'tror degan joyda tug'ilgan. U tug'ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, arab xalifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan. Forobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida oldi. So'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga keldi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko'p ilm ahllari to'planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari – Isfahon, Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo'ldi. Forobiy Bag'dodda al-Mutaddil (829–902), al-Muqtafiy (902–908), al-Muqtadir (908–932) xalifaliklari davrida yashadi. U bu yerda o'rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o'zga diniy e'tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo'ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870–940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylon (860–920)dan tabobat va mantiq ilmini o'rgandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Taxminan 941 yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug'ullangan. So'nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfuddavla Hamdamid (943–967) iltifotiga sazovor bo'ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga e'tibor berganligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga ko'nmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal ko'radi.

Forobiy o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko'proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin:

- yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar.
- fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari (“Metafizika”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va b.)ni betafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko‘rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari O‘rta va Yaqin Sharq ilg‘or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g‘oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari (“Metafizika” – “Moba’diy tabiat”)ni o‘qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta’kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o‘rta asr Ovro‘posini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o‘ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi.Forobiy dunyoqarashida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy fikrlar ham muhim o'rinni egallaydi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Forobiy yangi musiqa asbobi yaratgan, kuy bastalagan, mohir sozanda sifatida nom chiqargan. Forobiyning aytishicha: “musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi”.

Forobiy avvalambor Aristotel ta’limotini tiklash, asoslash va ilg‘or tomonlarini so‘nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chikdi.

Forobiy 949–950 yillarda Misrda, so‘ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va “Bob as-sag‘ir” qabristoniga dafn qilingan deyiladi.

Forobiyning asosiy asarlari: "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Ensiklopediyadan mantiq bo'limining bir qismi", "Ta'liqot" (sharhlar), "Inson a'zolari haqida risola", "Bo'shliq haqida maqola", "Donolik asoslari", "Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi", "Hayvon a'zolari, funksiyasi va potensiyasi", "Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima", "Mantiq ilmiga kirish", "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Musiqa haqida katta kitob", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Masalalar mohiyati", "Buyuk kishilarning naqllari", "Ilmlar hisobi", "Hikmat ma'nolari", "Aql to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati", "Qonunlar haqida kitob", "Substansiya haqida so'z", "Falak harakatining doimiyligi haqida", "She'r va qofiyalar haqida so'z", "Ritorika haqida kitob", "Hajm va miqdor haqida so'z", "Musiqa haqida so'z", "Fizika usullari haqida kitob", "Fazilatli xulqlar", "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida", "Aristotel "Metafizika" kitobining maqsadi to'g'risida" va boshqalar. Forobiy asarlari 20-asrning 70—80-yillarida Toshkent va Olmaotada "Falsafiy risolalar", "Mantiqiy risolalar", "Matematik risolalar", "Ijtimoiy-axloqiy risolalar", "Tadqiqotlar va tarjimalar" asarlari o’rin egallagan.

Asarlaridagi asosiy g’oyalar: Allomaning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Baxt- saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Buyuk kishilarning naqllari", "Musiqa haqida katta kitob", "Fuqarolik siyosati" va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloq-odob va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan.

“Ilm va san’atning fazilatlari” risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, sifatlardan aksidensiya (al-oraz)dan substansiya – mohiyat (javhar)ga qarab borishini ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini ta’kidlaydi.

“Yudduzlar haqidagi qoidalarda nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘riligi to‘g‘risida” risolasida osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o‘rtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan bulutlar va yomg‘irlar paydo bo‘lishining Quyosh issiqligi ta’sirida bug‘lanishga sababiy bog‘liqligini yoki Oy tutilishi Yerning Kuyosh bilan Oy o‘rtasiga tushib qolishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan edi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab “fol ochuvchilar”ni fosh qildi. Forobiy arzon metallarni qimmatbaho metallarga aylantirishga urinuvchilarni (q. Alkimyo) tanqid qilib, kimyoga tabiiy ilmlarning bir qismi sifatida

qaradi. Forobiy tabiblik bilan bevosita shug‘ullanmagan bo‘lsa-da, nazariy tibbiyotni yaxshi bilgan. Uning tibbiy qarashlari “Inson a’zolari haqida” risolasida bayon qilingan. U inson a’zolarini, turli xil kasalliklar sababini, ularning paydo bo‘lish sharoitlarini alohida-alohida o‘rganishni, organizmning salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e’tibor berishni qayd etadi. Insonning ruhiy va jismoniy holati tashqi omillar, muhit ta’siriga bog‘liqligiga e’tibor beradi. Uning tibbiyot vazifasi, maqsadi haqidagi qarashlari Ibn Sinoning bu haqdagi qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Asarlarini inson hayotidagi o’rni: Axloq ilmi ruxiy olmani o’rganuvchi ilmlarning eng muhimidir. Axloqni faqat nazariy bilish aslida uni bilmaslikdir. Chunonchi, butun insoniyat yomonlaydigan poraxo’rlik va o’g’irlik –poraxo’r va o’g’ri uchun yaxshi xulq bo’lib ko’rinadi. Inson fe’li atvoridagi aldamchilik, dangasalik, badnafslik, kibru- havo, baxillik, hasadgo’ylik kabi elatlarni ko’zda tutadi. Forobiy fikricha: “insonning bilishini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolarni hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markazdir, barcha ruhiy quvvatlar, jumladan bilish qobiliyati muayyan a’zoga bog‘liq”.

Forobiyning falsafiy ta’limoti: Mohiyat-e’tibori bilan an’anaviy ilohiyot – kalomdan tubdan farq qilib, ilmiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgandir. Forobiy falsafasiga ko‘ra, olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud – vujudi vojib, ya’ni azaliy vujud – birinchi sabab hamda vujudi mumkin – yaratilgan, kelib chiqqan vujudlar natijalaridan iboratdir. Alloh – azaliy vujud (vujudi vojib) hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar – vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog‘onama-pog‘ona kelib chiqadi, buning so‘nggi pog‘onasi moddadir. Uning fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo‘lishi, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo‘yicha kechadigan tadrijiy jarayondir. Forobiy “Masalalar mohiyati”, “O‘zgaruvchan narsalar haqida” risolalarida modda fazoda ham, vaqtda ham cheklanmagan, intihosiz degan fikrni ilgari suradi. Shu tarzda panteizmning Sharqdagi ko‘rinishi vujudiyun ta’limotini yangi g‘oyalar bilan boyitdi.

Xulosa: Abu Nasr Forobiy hayoti va ilojidi o’rganib, uni buyuk mutafakkir ekanligini bilib olishingiz mumkin. U har bir sohaga o’z hissasini qo’shgan. U biz avlodlar uchun har sohada kamol topishimiz uchun ko’plab asarlar yozib qoldirgan. Biz uning barcha asarlarini o’qisak, o’zimiz uchun ko’p bilim va tajriba orttirishimiz mumkin. Biz bunday buyuk bobokalonlarimiz borligidan doimo faxrlanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ma’naviyat yulduzlari” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent,1999.
2. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/abu-nasr-forobiy-873-950-o-zbekiston-qozog-iston
3. https://mbaza.uz/tarjimai-hol/abu-nasr-farobiy-hayoti-va-ijodi-asarlari/#google_vignette
4. https://bilimlar.uz/abu-nasr-forobiy-haqida-hayoti-va-ijodi/
5. https://fayllar.org/abu-nasir-farobiyning-asarlari-va-bizgacha-yetib-kelgan-qoyozm.html
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
8. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.